



## Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

### SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:  
<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>



### PASHTU ADABIYOTIDA TARIXIY ROMAN VA UNING JANRI MASALASI

**Sardor Qoraboyev**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

#### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** roman janri, pashtu adabiyotida tarixiy roman janri masalasi, milliy qahramonlar, tarixiy davr ijtimoiy muhitini tasvirlash, tarixiy romanlarda sevgi mojarolari.

**Annotatsiya:** Pashtuzabon adabiyotida tarixiy roman janrining paydo bo'lishi o'tgan asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Pashtu adabiyotidagi tarixiy roman janri rivojiga G'ulom G'avs Xaybariy, Muhammad Ibrohim Atoyi, Said Rasul Raso va Zubayr Shafiqiy kabi romannavislar katta hissa qo'shdilar. Ushbu maqolada mazkur romannavislar tomonidan pashtu tilida yozilgan "D' o'r lamba" – "Olov alangasi", "Arokuzi peg'la av Maqduni Iskandar" - "Araxosiyalik qiz va makedoniyalik Iskandar", "D' Abdaliy to'ra" – "Abdaliy qilichi" va "D' Osiyo p' zr' ke to'fon" – "Osiyo yuragida to'fon" romanlari qisqacha tahlil qilingan. Tahlil jarayonida asosiy e'tibor romanlarda tarixiy haqiqatning talqin etilish masalasi hamda ularning badiiyatiga qaratilgan.

### THE HISTORICAL NOVEL IN PASHTO LITERATURE AND ITS GENRE ISSUES

**Sardor Qoraboyev**

Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences,  
Tashkent State University of Oriental Studies

#### ABOUT THE ARTICLE

**Key words:** novel genre, the issue of the novel genre in Pashto literature, national heroes, depiction of the social

**Annotation:** The emergence of the historical novel genre in Pashto literature dates back to the second half of the last century. Such novelists as Ghulam Ghaus Khaybari, Muhammad Ibrohim Atoyi, Said Rasul Raso and Zubayr

*environment of the historical period, love conflicts in historical novels.*

*Shafiqi made a great contribution to the development of the historical novel genre in Pashto literature. This article briefly analyzes the works of the above-mentioned novelists “The Flame of Fire”, “The Girl from Arakhosia and Alexander the Great” and “The Storm in the Heart of Asia”. The analysis focuses on the issue of interpretation of historical reality in the novels as well as their fictionality.*

## ИСТОРИЧЕСКИЙ РОМАН В ПАШТУ ЛИТЕРАТУРЕ И ВОПРОСЫ ЕГО ЖАНРА

**Сардор Корабоев**

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам,  
Ташкентский государственный университет востоковедения  
Ташкент, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** жанр роман, проблема жанра романа в пуштунской литературе, национальные герои, описание социальной среды исторического периода, любовные конфликты в исторических романах

**Аннотация:** Появление жанра исторического романа в пуштунской литературе относится ко второй половине прошлого века. Большой вклад в развитие жанра исторического романа в пуштунской литературе внесли такие романисты, как Гулом Гавс Хайбари, Мухаммад Иброхим Атои, Said Rasul Raso и Зубайр Шафики. В данной статье произведен краткий анализ произведений вышеперечисленных романистов “Пламя огня”, “Девушка из Аракосии и Александр Македонский” и “Ураган в Сердце Азии”. В процессе анализа основное внимание уделяется вопросу интерпретации исторической действительности в романах, а также их художественности.

Ma'lumki, tarixsiz kelajak yo'q. O'tmishini bilmagan, uni avlodlariga o'rgatmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi. Buni to'g'ri anglagan ayrim pashtun adiblari o'z asarlarida tarixiy mavzularga murojaat qildilar. Ular orasida Abdurauf Benavo, Qiyomiddin Xodim, Abdulla Baxtoniy kabi hikoyanavislardan tortib, Said Rasul Raso, G'ulom G'avs Xaybariy, Muhammad Ibrohim Atoyi, Nasr Ahmad Ahmadiy va Zubayr Shafiqiy kabi romannavislargacha mavjud edi.

Tarixiy mavzuga murojaat qilish pashtu adabiyotida XX asrning ikkinchi yarmida kuchaydi. Bu paytga kelib “Vish zalmiyon” – “Bedor yoshlar” harakati a'zolari g'oyalari ta'siri ostida milliy o'zlikni anglashga bo'lgan intilishlar adiblar ijodida aks eta boshladi.

Pashtu nasrida tarixiy mavzudagi asarlar janrlar kesimiga kuzatilganda, u tadrijiy rivojlanib kelganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Avvaliga ushbu mavzularda hikoyalar, ocherklar va dostonlar yozila boshlandi. Masalan, 1946-yilda Abdurauf Benavoning pashtunlarning mashxur tarixiy shaxslaridan hisoblangan sarkarda Mirvaysxon haqidagi “Mirvays neki” – “Mirvays Bobo”, 1956-yilda pashtun qabilalaridan biri Xo'taklar sulolasi haqidagi “Xo'takiya” – “Xo'taklar davri”, 1975-yilda “D' Afg'oniston tarixiy peshi” – “Afg'oniston tarixiy voqealari”, 1952-yilda Qiyomiddin

Xodimning pashtunlarning turmush tarzini belgilab beruvchi yozilmagan qonunlari to‘g‘risidagi “Pashtunvoliy”, 1973-yilda Abdulla Baxtoniyning “D’ Pashto pat” – “Pashtunlar g‘ururi” kabi hikoya va ocherklari bosilib chiqdi.

Bundan tashqari, 1951-yilda Qiyomiddin Xodimning “Tso‘ vradzi p’ shimoliy ke” – “Shimolda bir necha kun”, 1952-yilda Siddiqulo Rishtinning “D’ Qattag‘on lid’na” – “Qattag‘onni ko‘rish” va 1955-yilda “D’ Hind safar” – “Hindistonga safar” kabi safarnoma janridagi asarlari bosilib chiqdi. Ushbu asarlar ham o‘zida bir qancha tarixiy va etnografik faktlarni jamlagan edi.

Tarixiy mavzuni pashtu tilidagi romanga olib kirgan yozuvchi G‘ulom G‘avs Xaybariy hisoblanadi. U 1933-yilda Nangarhor viloyati Kama tumani Sangarsaroy qishlog‘ida tug‘ildi. G‘.Xaybariy Hindistonda Dehli Universitetida tahsil oldi. Afg‘onistonga qaytgach, Kobul radiosida Abdurauf Benavo bilan birga ishladi va uning adabiy ta’siri Xaybariy ijodida sezilarli iz qoldirdi. Sardor Muhammad Dovudxon davrida uning farmoni bilan etnik va qabilaviy nizolarga barham berish maqsadida taxalluslarni qabilaviy va kelib chiqish joy nomlari bilan atash ta’qilqandi. Shu vaqtarda G‘.Xaybariy taxallusini o‘zgartirib, “shahomat” nomi bilan ijod qilishga majbur bo‘ldi.

Abdurauf Benavoning yozishicha, G‘avs Xaybariy dastlab “Patoniy” taxallusi bilan ham ijod qilgan. Bundan tashqari, uning “Orzumand”, “Oshub” va “Hangoma” taxalluslari bilan chop etilgan maqola va tadqiqotlari ham mavjud.

G‘ulom G‘avs Xaybariy 1956-yilda د اور لمبے “D’ o‘r lamba” – “Olov alangasi” nomli tarixiy roman yozdi. Ushbu asar Sobiq Sovet Ittifoqi Fanlar akademiyasi a’zosi Savlatshoh Mehriiddinov tomonidan rus tiliga ham tarjima qilingan. Lekin ushbu asar haqida rus olimi A.S.Gerasimova o‘zining “Литература Афганистана на языке пушту” nomli monografiyasida “D’ o‘r lamba”ni roman emas qissa (повесть) deb ko‘rsatadi<sup>1</sup>. A.S.Gerasimova asarni “qissa” deb atayotganligini uning hajman yirik bo‘lganligi holda tasvirlanayotgan davrni qisqaligi bilan izohlaydi<sup>2</sup>. Asarda birinchi ingliz-afg‘on urushining (1838-1842 yy.) yakuniy bosqichi, ya’ni, 1842-yilning 13-yanvaridan 24-fevraligacha bo‘lgan davr tasvirlangan.

1841-yilning 11-dekabrida imzolangan kelishuvga ko‘ra, Kobulda qamalda qolgan ingliz harbiylari barcha asirlarni afg‘on tomoniga topshirib, Afg‘oniston hududidan chiqib ketishlari kerak edi. Lekin inglizlar tomonidan kelishuv shartlarini bajarishning kechiktirilishi pashtunlarning keskin choralar ko‘rishiiga sabab bo‘ldi. 1841-yilning 23-dekabrida ingliz harbiylarining Kobuldagi qo‘mondoni general Maknoten otib o‘ldiriladi va Kobuldan Hindistonga qarab chekinayotgan besh ming kishilik ingliz harbiylari va Afg‘oniston hududida joylashgan ingliz harbiy qismlarining barchasi yo‘q qilinadi. Inglizlarning tarafdoi bo‘lgan amir Shujo ul-Mulk ham barakzay qabilasi sardori tomonidan otib o‘ldiriladi.

G‘.Xaybariy asarda voqealarning aniq sanalari bilan berishi hamda general Seyl va doktor Bridon kabi tarixiy shaxslarning ishtiroti uning ishonchli chiqishini ta’milagan.

Lekin asarning asosiy qahramonlaridan biri ingliz ofitseri Jonson to‘qima obraz hisoblanadi. U afg‘onlar yurtidagi ushbu maqsadsiz urush muvaffaqiyatsizlik bilan tugashini anglab yetadi va islom dinini qabul qilib, pashtun qiziga uylanadi va umrining oxirigacha Afg‘onistonda baxtli hayot kechiradi.

“D’ o‘r lambe” pashtu tilidagi dastlabki tarixiy roman hisoblanadi. Chunki unda qisqa davr tasvirlangan bo‘lsa ham, asarda bir nechta syujet liniyasi orqali birinchi ingliz-afg‘on urushidagi ijtimoiy-siyosiy muhit mahorat bilan tasvirlangan. Muallif aniq tarixiy shaxslar va voqealarni berish

<sup>1</sup> А.С.Герасимова, “Литература Афганистана на языке пушту”, Москва 1966, Наука, С.63

<sup>2</sup> А.С.Герасимова, “Литература Афганистана на языке пушту”, Москва 1966, Наука, С.63

orqali o‘quvchini o‘sha davrdagi siyosiy mojarolar girdobiga, harbiy harakatlar va qurolli to‘qnashuvlarni batafsil yoritish orqali jangovar harakatlar oqimiga olib kira oladi.

1958-yilda G‘.Xaybariyning makedoniyalik Iskandar va pashtun qizi o‘rtasidagi mojaro aks etgan yana bir tarixiy romani – [اراکوزی پېغله او مۇدونى سىكىنر] Arokuzi peg‘la av Maqduni Iskandar] - “Araxosiyalik qiz va makedoniyalik Iskandar” chop etildi. Markaziy Osiyo xalqlari uchun umumiy hisoblangan ushbu mavzu G‘.Xaybariy tomonidan ham umumiylar tarzda qalamga olinadi. Asarda muallif bir tomonlama yondashuvga yo‘l qo‘ymagan, ya’ni qizning ismi va millatini ko‘rsatmaydi. O‘z bosqinchilik urushlari davomida Iskandar Markaziy Osiyo hududida kuchli qarshilikka duch kelganligi, bu yerda yashayotgan xalqlar bosqinchilarga qarshi yaxlit kuch sifatida tasvirlanganligi asarning qiymatini oshirgan.

G‘.Xaybariyning 1973-yilda chop etilgan د ابدالى توره “D’ Abdaliy to‘ra” – “Abdaliy qilichi” romani afg‘on davlatchiligi asoschisi Ahmadshoh Abdaliyning Hindistonga qilgan yurishini aks ettirgan yirik tarixiy roman hisoblanadi.

G‘avs Xaybariy XX asrning 60-yillarda Hindistonda yashganligi va Dehli Universitetida tahlil olganligi sababli 1761-yildagi Panipat jangidan tashqari Ganjipur, Shohjahonobod va Oromgar yaqinidagi janglarni ham mahorat bilan tasvirlay olgan. Asarning bosh qahramoni Ahmadshoh Abdaliy dushmanqa qarshi shavqatsizlik bilan jang qilsa-da, o‘z yaqinlariga mehribon, tanti, insonparvar va kamtarin shaxs sifatida gavdalantirilgan. Asirga tushgan hind maxarojalari uning o‘z askarlari bilan bir qozondan oddiy ovqat yeyishini, askarlarniki kabi oddiy chodirda tunashini ko‘rib hayratlanishadi. Muallif hind maxarojalalarining xashamatga o‘chligini ularning ma’naviy kamchiligi sifatida izohlaydi: “Hind maxarojalari insonning buyukligi baland qasrlar va saroylarda, tilla va ipak liboslarda emas, uning ma’naviyatida, fikrlarida va hatti-harakatida namoyon bo‘lishi to‘g‘risida tasavvurga ham ega emasdilar”<sup>3</sup>.

Shuningdek, asarga badiiy to‘qima – Akbarxon obrazni kiritilgan bo‘lib, uning timsolida yozuvchi pashtunlarning idealini yaratishga harakat qilgan. Uning hind qizi Krishnapiari bilan sevgi qissasi ularning bir-biriga dushman bo‘lgan ikki tomonda bo‘lishlariga qaramay, oxir-oqibat bir-biriga yetishishi bilan tugaydi. Akbarxon jangda yaralanib, ko‘r bo‘lib qoladi va sevishganlar Afg‘onistonga qaytib kelib, G‘azni shahrida baxtli hayot kechiradilar.

Asarda muallif ayollarga bo‘lgan munosabatda ozgina bir yoqlama yondashuvga yo‘l qo‘yanligi seziladi. Unda pashtunlar har qanday ayolni o‘z opa-singlisidek ko‘rib, e’zozlashi va hindlar tomonidan ayollarning huquqlari oyoq osti qilinishi, ayniqsa bevalarning yashash huquqidan ham mahrum etilganligi alohida ta’kidlanadi.

Asar badiiy jihatdan ham, g‘oyaviy jihatdan ham ancha puxta yaratilgan bo‘lib, unda pashtunvolay kabi milliy qadriyatlardan tashqari umuminsoniy g‘oyalar ham tarannum etilgan. Asarda afg‘on yigitini sevib qolgan hind qizi Krishnapiari tilidan “faqatgina sevgi, do‘stlik va sadoqat jamiyatdagi baxt, xursandchilik va tinch-totuv hayotning birdan-bir manbai bo‘ladi”<sup>4</sup> degan umumbashariy g‘oya yangraydi.

G‘.Xaybariy umrini tarixiy mavzudagi asarlar yaratishga baxsh etgan shaxs hisoblanadi. د کندھار ناوی توره ، د ابدالى توره ، کابل ۱۹۷۳ م ، ۳۳ مخ<sup>3</sup>  
- د کندھار ناوی توره ، د ابدالى توره ، کابل ۱۹۷۳ م ، ۱۳۰ مخ<sup>4</sup>

Гулам Гуфт Хири, „Даъвати Торе“, 1973, № 33  
Гулам Гуфт Хири, „Даъвати Торе“, 1973, № 130

G‘.Xaybariy umrini tarixiy mavzudagi asarlar yaratishga baxsh etgan shaxs hisoblanadi. د کندھار ناوی توره ، د ابدالى توره ، کابل ۱۹۷۳ م ، ۳۳ مخ<sup>3</sup>  
- د کندھار ناوی توره ، د ابدالى توره ، کابل ۱۹۷۳ م ، ۱۳۰ مخ<sup>4</sup>

qon” kabi tarixiy qissasi, pashtunlarning tarixiy shaxsi – Shershoh Suriy to‘g‘risidagi tadqiqotlari jamlangan – لوی افغان شیرشاه سوری “Lo‘y afg‘on Shershoh Suriy” - “Buyuk afg‘on Shershoh Suriy” kabi monografiyasi chop etilgan.

Bundan tashqari, Xaybariyning dariy tilida - تفگداران خیبر “To‘fangdoroni Xaybar” - “Xaybar miltiqdorlari”, قهرمان میمید - “To‘fonho” -“To‘fonlar”, قهرمان mimirad - “Qahramon o‘ladi” va لکه های خون - “Lagahoyi xun” - “Qon dog‘lari” kabi tarixiy roman va hikoyalari chop etilgan. Ularning ham aksariyatida pashtunlarning inglizlarga qarshi kurashlari aks etgan.

Ma’lumki, jahon romanchiligi taraqqiyoti jarayonida tarixiy romanning asosan quyidagi ikki shakli yuzaga kelgan va epik adabiyot maydonida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan:

1. An‘anaviy tarixiy roman (bu atama jahon adabiyotshunosligi, ayniqsa, G‘arb estetikasida “Valter Skott romani” tarzida qo‘llaniladi va tabiiyki, u har bir milliy adabiyotda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin). Unga ko‘ra, ko‘pgina g‘arb olimlari, jumladan, O.Balzak, V.Belinskiy roman markazida hamma vaqt ham aniq shaxs turishi shart emas, deb hisoblaganlar.

2. Tarixiy-biografik roman. Bunda aksariyat adabiyotlarda tarixiy roman qahramoni sifatida shaxsiy hayoti xalqning taqdiri bilan uзви bog‘liq bo‘lgan atoqli tarixiy shaxslarni tanlash va ularning faoliyatini badiiy aks ettirish keng kuzatiladi.

Yuqorida tahlilga tortilgan romanlarning dastlabkisi “D’ o‘r lambe” – “Olov alangasi” tarixiy romanning birinchi turiga mansub bo‘lsa, “Arokuzi peg‘la av Maqduni Iskandar” - “Araxosiyalik qiz va makedoniyalik Iskandar” hamda “D’ Abdaliy to‘ra” – “Abdaliy qilichi” romanlari tarixiy-biografik roman turiga mansub.

Pashtu adabiyotida roman qahramoni sifatida shaxsiy hayoti xalqning taqdiri bilan uзви bog‘liq bo‘lgan atoqli tarixiy shaxsning faoliyati badiiy aks ettirilgan yana bir tarixiy roman Zubayr Shafiqiy tomonidan yozilgan “Mirvaysxon bobo” romanidir. Ushbu tarixiy romanda afg‘on sarkardalaridan biri Mirvaysxonning (1673-1715) Eron Safaviylariga qarshi kurashi, ular ustidan qozongan g‘alabasi va Qandahorda afg‘onlarning G‘iljoy qabilasi hukmronligining o‘rnatalish jarayonlari tasvirlangan.

Romanda XVI asrda pashtunlar hayotida asta-sekinlik bilan shakllanayotgan milliy uyg‘onish harakatlari jarayoni, milliy ong shakllanishi natijasida milliy davlatchilikning dastlabki ko‘rinishlari paydo bo‘lishi tasviriga katta ahamiyat berilgan. Chunki hozirgi Afg‘oniston hududi shimolda Shayboniylar, sharqda Boburiylar va g‘arbda Safaviylar sulolalari orasida bo‘lib olingan edi. Ayniqsa, Safaviylar tomonidan Qandahorga hokim sifatida qo‘yilgan gurji (gruzin) zodagoni Gurgen Xon xalqqa zulmni kuchaytiradi. Birinchi marta Gurgen Xonga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan Mirvaysxon yengiladi va asirga olinib, Eronga Safaviylar huzuriga yuboriladi. U asirlikda yurgan paytlarida shohning ishonchini qozonadi va avvaliga haj safariga borishga keyin esa Qandahorga qaytishga ruxsat oladi.

Asarda Mirvaysxon qilgan xatosidan to‘g‘ri xulosa chiqargan, aqlli, dushmanining har bir qadamini oldindan to‘g‘ri tahmin qila oladigan dono sarkarda, xalqparvar davlat arbobi sifatida yoritilgan. U hajga borganida arab shayxlari bilan uchrashib, shialarga qarshi ulardan ko‘mak olishga harakat qiladi. Qandahorga qaytgach, 1709-yilning bahorida “jirga” chaqiradi va unda g‘iljoylardan tashqari alokazay, nurzay va kokar qabilalarining ham qo‘llab-quvvatlashiga erishgan Mirvaysxon Safaviylarga qarshi ikkinchi marta qo‘zg‘olon ko‘taradi va Eron qo‘sishini jangda mag‘lub qiladi. Qandahor yaqinidagi Dehi Shayx nomli qishloqda Gurgen Xon o‘ldirilgandan keyin, Mirvaysxon Qandahorni mustaqil boshqara boshlaydi. Safaviylar tez orada Qandahorni qayta Eron tasarrufiga kiritish uchun qo‘sish yuborishini hisobga olgan Mirvaysxon janubdagagi beluj qabilalari bilan ham ittifoq tuzadi. Shu yilning kuz faslida Safaviylar tomonidan Qandahorga yuborilgan qo‘sish mag‘lubiyatga uchraydi va Mirvaysxon 1709-1738 yillarda Qandahorda hukmronlik qilgan, G‘iljoy

qabilasining Ho'tak urug'i nomi bilan atalgan sulolaga asos soldi. Ho'taklar sulolasi keyinchalik Eronni ham bosib oldilar va u yerda 1722-1730 yillarda hukmronlik qildilar.

A.Kattabekov "Tarixiy haqiqat va badiiy mahorat" nomli monografiyasida ta'kidlaganidek tarixiy asarning asosiy xususiyatlari uning "real tarix bilan hamohangligidir"<sup>5</sup>.

Ana shunday real tarix bilan hamohang, tarixiy haqiqat bilan uzviy bog'liq bo'lgan, birinchi ingliz-afg'on urushini tasvirlagan "D' o'r lambe"ning mantiqiy davomi hisoblangan, ya'ni ikkinchi ingliz-afg'on urushini (1878-1880 yy.) tasvirlagan roman Muhammad Ibrohim Atoiy tomonidan yozildi.

Muhammad Ibrohim Atoyi yozuvchi, folklorist, tadqiqotchi 1930-yilda Qandahorda tug'ildi. Hoji Ohund nomi bilan mashxur otasi mavlaviy Ato Muhammad Qandahor adabiy anjumani a'zosi va "Bedor yoshlar" (Vish zalmiyon) harakatining asosiy homiyalaridan biri edi.

I.Atoyi jurnalist sifatida ham faoliyat yuritdi. "To'lo'yi afg'on" gazetasi uning rahbarligida ancha rivojlandi. Bundan tashqari "Helmand" va "Nur" nomli jurnallar ham chop etdi. U ilmiy, tarixiy va adabiy sohada 30 dan ortiq asarlari yozib qoldirdi. Roman, qissa va hikoyalardan tashqari qator ilmiy maqolalar va tadqiqotlar muallifi bo'lgan I.Atoyi 2001-yilda 71 yoshida Kobulda vafot etdi.

Atoiyning ikkinchi ingliz-afg'on urushini tasvirlagan romani "D' osiyo p' zr' ke to'fon" – "Osiyo yuragida to'fon" deb atalib, 1980-yilda ikkinchi ingliz-afg'on urushi yakunlanganining 100 yilligi arafasida chop etildi. Asar an'anaviy tarixiy roman uslubida yozilgan bo'lib, unda muallif pashtun xalqi hayotidagi murakkab davrni, urushdagi qurolli to'qnashuvlar, qo'shinlar harakati, qo'mondonlar orasidagi baxs-munozaralar, amir atrofidagi fitnalar, yashirin kelishuvlar va noroziliklarni batafsil tasvirlashga harakat qilgan. Asarda bosh qahramon yo'q. Asosiy syujet chiziqlari pashtun xalqining inglizlarga qarshi kurashiga safarbar etilgan.

Asar voqealari afg'on amirlari Sheralixon (1869-1879 yy.) va o'g'li Amir Yoqubxon (1879-yilning fevral-oktabr oylari) hukmronlik davriga to'g'ri keladi. Romanda Amir Sheralixon aqli, ehtiyyotkor, uzoqni ko'ra oladigan dono hukmdor sifatida tasvirlansa, amir Yoqubxon uning aksi sifatida taxtga o'tirishga nomunosib shaxs sifatida tasvirlangan. Amir Sheralixon inglizlarning hujumi yaqinlashayotganini sezadi va Rossiya imperiyasi bilan ikkitomonlama diplomatik aloqalar o'rnatishga harakat qiladi. Kobulda rus generali Stoletov boshchiligidagi delegatsiyani xursandchilik bilan qabul qiladi. Rossiya bilan strategik hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun imperiya poytaxti Peterburgga bormoqchi bo'ladi. Uning bevaqt o'limi natijasida Afg'oniston Rossiya bilan mustahkam aloqa o'rnatishga ulgurmeydi. Uning o'rniga kelgan Amir Yoqubxon inglizlarga qarshi kurash davom etayotganiga qaramay, hokimiyatni o'z qo'lida saqlab qolish uchun 1879-yilning 26-mayida ular bilan "Gandamak" nomli tinchlik shartnomasini tuzadi.

"Gandamak" shartnomasiga ko'ra, pashtun qabilalari yashaydigan bir qancha yerlar, shu jumladan, Xaybar dovoni ham inglizlar nazorati ostiga o'tishi, Kobulga Dehlidan telegraf tortib kelinishi va bu yerdagi ingliz diplomati Afg'oniston tashqi siyosatini (aloqalarini) nazorat qilishi kerak edi. Amir Yoqubxonga inglizlar tomonidan nafaqa tayinlanadi.

Bu shartnomani mustamlakachilarning domiga tushish ekanligini to'g'ri tushungan afg'on xalqi uni qabul qilmaydi va urushni davom ettiradi. Shartnomaga asosan inglizlar tomonidan Afg'onistonga yuborilgan ingliz siyosiy agenti Kavanyari Kobulga kelgan paytda xalq qo'zg'olon ko'taradi va Kavanyari o'ldiriladi. Romanning shu nuqtasidan boshlab inglizlarga qarshi kurashdagi tashabbus xalq tomoniga o'tadi. Lekin bir vaqtning o'zida ham ingliz bosqinchilariga qarshi, ham o'z hokimiyatini saqlab qolishga intilgan, sotilgan hukumat vakillariga qarshi ikki frontda jang qilgan

<sup>5</sup> Kattabekov A. Tarixiy haqiqat va badiiy mahorat, -Toshkent: Fan. 1982. -B.10.

pashtun xalqi jangda yengiladi. Romanning yana bir o‘ziga xos tomoni I.Atoiy pashtunlarning mag‘lubiyati sababini aniqlashga harakat qiladi. Asosiy sabab hokimiyatni o‘z qo‘lida saqlab qolishga samarasiz uringan Amir Yoqubxonning pashtunlar milliy manfaatiga qilgan xiyonati bo‘lsa, yana bir sabab sifatida bu paytga kelib, afg‘onlarning “pashtunvoliy”ga amal qilmay qo‘yanligi hisoblanadi. Buning ustiga muallif “pashtunvoliy” prinsiplarini har kim o‘z manfaatiga mos ravishda talqin eta boshlaganini ko‘rsatib bera olgan.

Romandagi eng yorqin hikoyalardan biri Mayvand jangida qahramonlik ko‘rsatgan afg‘on qizi Malolay haqidagi hikoyadir. Unga ko‘ra, jangning eng qizg‘in pallasida inglizlar qo‘li baland kelayotganini ko‘rgan ayrim afg‘on askarlari chekina boshlaydilar. Shunda Malolay ismli qiz jang maydoniga kirib keladi va afg‘onlar bayrog‘ini ko‘targan holda dushman tomonga intiladi. Buni ko‘rgan chekinayotgan askarlar ortga qaytadilar va saflarini to‘ldirib, dushmanqa qarshi hujumga o‘tadilar. Jangda Malolay halok bo‘ladi, lekin u tomonidan aytilgan landey bugungi kungacha mashhur:

خال به دیار له وینو کېردم  
چي شینکى باغ کى گل گلاب وشرموینه  
کە پە میوند کى شھید نە شوي  
خدای برو لالیه بى ننگى تە دى ساتىنه

Tarjimasi: “Yorimning qonidan yuzimga xol qo‘yaman,  
Ki gulshandagi atirgullar ham uyalsin.  
Agar Mayvandda shahid bo‘lmasang,  
Xudo haqqi, azizim, seni oriyatsiz hisoblaydilar”.

Bu o‘rinda shuni ham aytib o‘tish kerakki, I.Atoiy mazkur tarixiy romanida Sobiq Ittifoqi adabiyoti ta’siri ham seziladi. O‘tgan asrning 70-80 yillarda Sobiq Ittifoq doirasidagi mamlakatlar tarixiy romanlarida xalqni tarixiy jarayonlarning hal qiluvchi kuchi tarzida ko‘rsatish kuchaydi. Bundan tashqari tarixiy romanning asosiy jihatni, uning “zaminiga voqeа va shaxslarning haqqoniyligi bilan belgilangan hujjalilikning qo‘yilishi”<sup>6</sup>, ko‘rsatilgan. I.Atoiyning “D’ osiyo p’ zr’ ke to‘fon” romanida ikkinchi ingliz-afg‘on urushi davri va unda afg‘onlar tarixiga dog‘ bo‘lib tushgan “Gandamak” shartnomasi tarixiy haqiqatni ifodalovchi hujjat sifatida o‘rtaga qo‘yiladi.

O‘zbek adabiyotshunosi S.Mirvaliyevning ta’biri bilan aytganda “Tarixiy romanda moziyning tugallangan, qaytarilmaydigan va tarix tomonidan muhrlangan davrini”,<sup>7</sup> tasvirlagan yana bir pashtun romannavisi hozirgi Pokiston hududida ijod qilgan pashtun adibi Said Rasul Raso edi.

Said Rasul Rasoning besh ta romani juda mashxur bo‘lib, u haqida Muhammad Siddiq Ruhi o‘zining “Pashtu adabiyoti tarixi” asarida yozadi “Raso sohibning “Shamey”, “Momunay”, “Mafrur”, va “Xudkushi” kabi romanlari juda mashxur”<sup>8</sup>. Muhammad Siddiq Ruhiy uning to‘it romanini sanab o‘tadi. “Mayxona” romani 1991-yilda uning o‘limidan keyin chop etilgan. Shuningdek, uning chop etilmagan “Kachkul” romani<sup>9</sup> to‘g‘risida ham ma’lumotlar yetib kelgan.

Rus olimi G.F.Girs “Bo‘ysunmas xalq adabiyoti” monografiyasida Said Rasul Rasoning ijodida uning Peshovar Islom kollejida o‘qiganligi katta ta’sir ko‘rsatganini aytib o‘tadi<sup>10</sup>.

<sup>6</sup> Топер П. и другие. Роман – эпос современной литературы//Вопросы литературы. – Москва. 1978. – №12. – С. 7-11.

<sup>7</sup> Mirvaliyev S. O‘zbek romani -Toshkent: Fan. 1969. -B.215-217.

<sup>8</sup> محمد صدیق روھی ، د بېنۇت اوپۇياتۇ تارىخ (معاصرە دورە) ، پېشۇر ۱۹۹۹ م ، ۲۹۱ مخ

<sup>9</sup> محمد صدیق روھی ، د بېنۇت اوپۇياتۇ تارىخ (معاصرە دورە) ، پېشۇر ۱۹۹۹ م ، ۲۹۱ مخ

<sup>10</sup> Г.Ф.Гирс, Литература непокоренного народа, Москва 1966, Наука, - С.73

Said Rasul Rasoning “Mayxona” romani rus adabiyotshunosi S.Petrov zamonaviy tarixiy romanda qo‘ygan talablarga, ya’ni “moziyning ulkan ahamiyatga molik, hal qiluvchi bosqichini tasvirlash”<sup>11</sup>ga javob bera oladigan tarixiy roman hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, pashtu adabiyotida tarixiy romanning shakllanishi va janrlar tizimida o‘z o‘rnini topishi muayyan ijtimoiy-siyosiy omillar bilan bog‘liq. Bu omillarning asosiysi adabiy jarayonlarda milliy g‘urur tuyg‘usini adabiy maydonga olib kirish, milliy ozodlik harakatlari davomida sodir bo‘lgan millat hayotidagi muhim tarixiy voqealarni yoritishga bo‘lgan ehtiyoj edi. Bu ehtiyoj pashtun romannavislarini ham chetlab o‘tmadi. Ular roman janriga pashtunlar tarixiga oid mavzularni olib kirish orqali tarixiy romanning yangi bir sahifasiga asos soldilar.

Pashtu tilidagi tarixiy romanlar o‘zining afg‘on tarixidagi ayrim hodisalarni badiiy talqin qilishi orqali tarixiy roman tizimiga o‘ziga xos yo‘nalish sifatida kirdi. Pashtunlar hayotidagi tarixiy jarayonlar pashtu romani semantikasining kengayishiga olib keldi. Pashtunlar hayotida bo‘lib o‘tgan voqeа-hodisalar, rivojlanish va taraqqiyot bosqichlari, janglar va shu kabi muhim jarayonlarni roman janrining imkoniyatlari orqali ifodalash qulay ekanligini sezgan pashtun adiblari tarixiy romanning pashtu tilidagi noyob durdonalarini yaratdilar.



<sup>11</sup> Петров С. Русский исторический роман XIX века. – М.: современник. 1980. - С.38